



QISSA JANRI VA UNING O‘ZIGA XOS BELGI XUSUSIYATLARI

Muqaddas Saidakbarova Muhammadrahimovna,

Qo‘qon Davlat Universiteti, dotsent

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Robiyaxon Sobitova Salohiddin qizi,

Qo‘qon Davlat Universiteti, talaba

Annotatsiya: Badiiy adabiyotning nazariy asoslari qadimiy “Poetika”ga borib taqalar ekan, uni tahlilga tortishda Aristotel tasnifiyotida zikr etilgan barkamol turlar nuqtai nazaridan yondashish maqbul qarordir. Epika, lirika, dramatika nomi ostida jamlangan insoniyatning bebaho durdonalari davrlar osha shakl va mazmun hodisasida yangilanishlar bilan talqin etilsada, nazariy mezonlari u qadar asliyatdan uzoqlashib ketmadi. Epik turning spesifik xususiyatlari boshqa adabiy turlarga nisbatan ob’ektivlik, voqeabandlik va ko‘lamdorligida namoyon bo‘ladi.

Annotatsiya: Поскольку теоретические основы художественной литературы восходят к древней «Поетике», то правильным решением будет подойти к ее анализу с точки зрения совершенных типов, упомянутых в классификации Аристотеля. Хотя бесценные шедевры человечества, собранные под названием эпоса, лирики и драмы, с течением времени интерпретируются с изменением формы и содержания, их теоретические критерии не отошли так далеко от оригинала.

Annotation: Since the theoretical basis of literary fiction dates back to the ancient Poetics, it is preferable to analyze it in terms of the evolved types mentioned in Aristotle's classification. Although the epic, lyrical, and dramatic genres, the precious jewels of humanity, have been interpreted with updates in form and content over time, their theoretical criteria have not been so far removed from the original. The specific characteristics of the epic genre are manifested in its objectivity, realism, and universality compared to other literary genres.

Kalit so‘z: adabiy tur, adabiy janr, kichik epik janr, latifa, masal, hikoyat, rivoyat, ertak, afsona, badia, etyud, ocherk, qissa.

Ключевое слово: литературный род, литературный жанр, малый эпический жанр, анекдот, притча, сказка, повествование, сказка, легенда, Бадия, этюд, очерк, рассказ.

Keyword: literary type, literary genre, small epic genre, anecdote, parable, narrative, narrative, fairy tale, legend, badia, etyud, ocherk, short story.

Qissa qadimiy janr bo‘lib, adabiy-tadrijiy jarayonda bir qancha bosqichlarni bosib o‘tib, nazariy mukammallik kasb etdi. Qissalar yaratilishiga va qanday voqelikni aks ettirishiga qarab bir necha turlarga bo‘linadi:

- 1.Yumoristik yo‘nalishda
- 2.Ijtimoiy-maishiy yo‘nalishda
- 3.Hujjatli yo‘nalishda
- 4.Sarguzasht yo‘nalishda
- 5.Detektiv yo‘nalishda
- 6.Kinoqissa yo‘nalishida
- 7.Biografik yo‘nalishda
- 8.Sentimintal yo‘nalishda
- 9.Tarixiy yo‘nalishda
- 10.Ilmiy-fantastik yo‘nalishda

Yumoristik yo‘nalishda yaratilgan qissalarda qahramon atrofida kechadigan voqea-hodisalar hajviy yo‘l bilan bayon qilinadi. Bunday qissalar sirasiga Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Jonginam, shartingni ayt”, Ismoil Shomurodovning “Kultepada kechgan hangomalar” kabi asarlari kiradi.

Ijtimoiy-maishiy qissalar insonlarning kundalik turmush tarzini, ijtimoiy hayot voqeliklarini yoritib beradi. Masalan, Dinora Rahmonovanning “Qishloqdagi buvijonim”²⁵¹, Akbar Mirzo qalamiga mansub “Oqtepalik o‘g‘ri”²⁵², “So‘nggi chora”²⁵³ asarlarini keltirish mumkin.

Zulfira Misbax “So‘fito‘rg‘ay”²⁵⁴, Shukur Xolmirzayev “U ustoz – men shogird”²⁵⁵ nomi ostida hujjatli qissalar yozishgan. Badiiy asar hujjatli qissa tarzida yaratilishi uchun u reallikka asoslanishi, ma‘lum bir manbalar asosida, aniq faktlar bilan qahramon atrofida ro‘y bergan voqealar keltirib o‘tilishi lozim.

Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Sehrli qalpoqcha”²⁵⁶, “Sehrgarlar jangi”²⁵⁷ asarlari sarguzasht-qissa yo‘nalishida yaratilgan. Sarguzasht-qissalarda qahramon hayotida yuz

²⁵¹D.Rahimova,Qishloqdagi buvijonim.-Toshkent:Adib nashriyoti-2012

²⁵²A.Mirzo,Oqtepalik o‘g‘ri.-Toshkent:G‘.G‘ulom nshriyoti-2013

²⁵³<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/tarjimai-hollari-kiritilmagan-adiblarning-asarlari/akbar-mirzo-so-nggi-chora-qissa>

²⁵⁴ziyouz.uz <https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/zulfira-misbax/>

²⁵⁵<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/shukur-xolmirzayev-1940-2005/shukur-xolmirzayev-ustoz-hikoya>

²⁵⁶<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/xudoyberdi-to-xtaboyev-sehrli-qalpoqcha-qissa>

²⁵⁷https://kitobsevar.uz/kxpv/xrpt_r4gnz183bv484zleka5c6xeoardc4yux50ku7cxs7tlu6r76u29pmc6nu9pmxbarakc8nnpjh3.pdf

beradigan, atrofda kechadigan voqea va hodisalar, obrazlarning hayot kechinmalari yoritib beriladi.

Detektiv qissalar turkumidan “Zulmatdagi saltanat”²⁵⁸ (O‘tkir Abdurahimov), “Alvido, bolalik”²⁵⁹, “Shaytanatning jin ko‘chalari”²⁶⁰ (Tohir Malik), Valisher Madaminovning “O‘rgimchak to‘ri”²⁶¹, Komil Sindarov “Kechikkan qasos”²⁶², “So‘poqsoydagi sirli qotillik”²⁶³, O‘lmas Umarbekovning “Yoz yomg‘iri”²⁶⁴ qissalari o‘rin olgan. Detektiv yo‘nalishda yaratilgan qissalar an‘anaviy tarzda o‘z shakl-shamoyiliga ega bo‘ladi. Badiiy asarda tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya va yechimda bo‘lgani kabi detektiv qissada ham tanlab olingan hayot materiali atrofida voqe bo‘lgan jarayonlar sir, ya‘ni odatda sodir etilgan jinoyat, tergov jarayoni, so‘ng uni fosh etish, ya‘ni jinoyatni ochish yo‘llari aks ettiriladi.

Erkin A‘zam qalamiga mansub “Suv yoqalab”²⁶⁵, “Zabarjad”²⁶⁶, “Parizod”, “Tanho qayiq”²⁶⁷ kabi asarlari kinoqissa shaklida yaratilgan. Kinoqissalar adabiyotimizda XX asrning ikkinchi yarmidan ko‘zga ko‘rina boshladi. Ular qissaning sahnaga mo‘ljallab yaratilgan namunasi hisoblanib, bunda drammatizm alomatlari seziladi. Qissa janrining bunday turida o‘ziga xos xarakterli jihatlar mavjud. Filologiya fanlari doktori Shavkat Hasanov bu janr haqida shunday deydi: “Birinchidan, kinoqissa dramatik asarlardagi sahna ko‘rinishlaridek alohida epizodlardan, manzaralardan tashkil topadi; ikkinchidan, nasriy asarlardagidek batafsillikni ko‘tarmaydi; uchinchidan, dialoglarning drammatizm asosiga qurilishi va tomoshabopligi bilan dramatik asarlarga yaqin turadi. Shuningdek, nasriy asarlarda ekspozitsiya syujet tarkibiy qismlaridan oldin, keyin, oxirida, ba‘zan aralash tarzda kelishi mumkin. Kinoqissalarda, asosan, dramatik asarlardagi kabi muqaddimada keladi”. Buni “Tanho qayiq” asaridan parchalarda ko‘rib o‘tamiz:

“Duradgorlik dastgohining bir chetida tushlik dasturxon: non bo‘laklari, uch-to‘rt dona oqqand, qora qumg‘onda choy. Orol boboning shogirdlari – o‘spirin yigitlar Jumaboy, Tilovbergan, Genjamurod – birovi dastgoh qirrasiga suyanib non kavshamoqda, birovi yerga

²⁵⁸<https://m.facebook.com/photo.php?fbid=156971459341506&set=a.104750921230227>

²⁵⁹https://uznel.natlib.uz:444/FN/dl_image/upload/userfiles/files/2019-28-A-28_Tohir%20Malik%20Alvido%20bolalik.pdf

²⁶⁰T.Malik, Shaytanatning jin ko‘chalari.-Toshkent:Yangi asr avlodi-2017

²⁶¹<https://audio.ziyouz.uz/book/6867>

²⁶²K.Sindarov,Kechikkan qasos.Tafakkur qanoti nashriyoti-2019

²⁶³K.Sindarov.So‘poqsoydagi qotillik.Toshkent:Yangi asr avlodi-2021

²⁶⁴<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=597:o-lmas-umarbekov-yoz-yomg-iri-qissa>

²⁶⁵<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=422:erkin-a-zam-suv-yoqalab-kinoqissa>

²⁶⁶<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/erkin-azam/erkin-azam-zabarjad-kinoqissa/>

²⁶⁷<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/erkin-azam/erkin-azam-tanho-qayiq-yohud-devonaning-orzusi/>

cho‘nqayib sopol kosadan xo‘rillatib choy ichayotir, kalta-kulta taxtadan qo‘lbola kursi yasab olgan, yana biri bekorchilikdan hushtak chalib o‘tiribdi. Yagona buklama brezent o‘rindiqlarda Orol boboning o‘zi, ensasini qashlab o‘y suradi. (alohida bir holat uchun tanlangan manzara va ekspozitsiyaning bob muqaddimasida kelishi)

O r o l b o b o (hushtakchi Genjamurodga). Ha, shaytonni chaqiryapsanmi?

G e n j a m u r o d (anqayib). Shaytonni? Nega?

O r o l b o b o. Hushtak chalish – shaytonni chaqirish bilan barobar. Shunday gap bor, eshitmaganmisan?

G e n j a m u r o d. Hamma chaladi-ku hushtakni...

O r o l b o b o. Bilib-bilmay chalsa kerak-da. Senga o‘xshab.

J u m a b o y (iljayib). Ovulingizda shayton qoptimi, Orol bobo, hammasi har yoqqa to‘zib ketgan-ku! (dramadagi kabi dialoglardan tarkib topishi)”. ²⁶⁸(1-qism, 2-sahna)

Adabiyotimiz xazinasida sentimintal yo‘nalishda yaratilgan qissa turlari mavjud. Sentimintal yo‘nalishdagi asarlarda, asosan, insonning his -tuyg‘ulari, psixologik tabiatiga ko‘p o‘rin ajratiladi. Bunda hissiyotlarning haqqoniyligi ahamiyatli hisoblanadi. Bunday asarlarga Bahodir Sarimsoqovning “Unutilgan odam”²⁶⁹ tugallanmagan qissasi, Oydin Nisoning “Hayot daraxti”²⁷⁰ qissalari misol bo‘ladi.

Biografik qissada ijodkor o‘z qahramoni timsolida o‘zining hayotining ma‘lum jarayonlarini ko‘rsatib beradi. Umuman olganda, xuddi real voqelikka asoslangan asarlar kabi avtobiografik mazmundagi asarlar markazida muallifning o‘zi turadi. Ijodkorning o‘z timsoli yordamida esa boshqa bir qahramon dunyoga keladi.

Oybekning “Bolalik”²⁷¹ qissasida Muso obrazi orqali yozuvchi o‘zining bolalik hayotini, o‘zining beg‘ubor “poshsho”lik yillarini, bu davrdagi ma‘lum kishilar taqdirini tasvirlab beradi. Yozuvchi 1963-yili qoraqalpog‘istonlik saylovchilar bilan uchrashuvda qilgan nutqida “Bolalik xotiralarimni tamomladim”, deya ta‘kidlagan. Shu boisdan muallif “Bolalik”qissasini “Bolalik xotiralarim” deya atagan. Ijodkor bu esdaliklarida bolalik kezlarida boshidan o‘tkazgan, Nikolay podsho va mahalliy mansabdorlar, beklar, din ahli hukm surgan vaziyat va Lenin boshchiligida qurilgan sovet davrining ilk kunlarini tasvirlaydi. “Bolalik”asarini o‘qir ekansiz, savodsiz, diniy xurofot ichida o‘ralib qolgan o‘zbek mehnatkashlari, boylar, mirshablar, qalandar va darveshlar, eski diniy maktab, arava zo‘rg‘a sig‘adigan tor ko‘chalar, pastak suvoqli uylar, kichik baqollik do‘konlari, eshak, ot, tuya kabi ulovlar, umuman olganda, oldingi eski

²⁶⁸11-sinf adabiyoti 2-qism .O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.Toshkent–2018.125-b.

²⁶⁹<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/tarjimai-hollari-kiritilmagan-adiblarning-asarlari/bahodir-sarimsoqov-unutilgan-odam-tugallanmagan-qissa>

²⁷⁰<https://ziyouz.uz/page/1212/?start=98&lng=lat>

²⁷¹<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/oybek-1905-1968/oybek-bolalik-xotira-qissa>

shahar qiyofasi gavdalanadi. Asardan olingan ushbu parchada keksalarning suhbatidan bu davrning o‘zinigina emas, undan avvalgi zamon holatini ham ifodalab bergan.

“...Tulpor otlarni osmonga sapchitib, qilich solardik. E-e, bu qilich ham endi menday keksa. Esiz-esiz, o‘tdi-ketdi yoshlik, yulduz oqqanday oqdi-ketdi. — Jon ota, bir ushlab ko‘ray, — yalinaman yig‘lamsirab. Bobom meni aldab-suldab chaqiradi-da yoniga o‘tqizadi. — O‘tir, o‘g‘lim, o‘tir, qilich nima degan gap. Endi qilichbozlik yaroq zamoni o‘tib ketdi. O‘qi, o‘g‘lim, ulg‘ayib, mulla bo‘l! — deydi orqamni qoqib. — Qani boshlang, do‘stim, Farg‘onada Madalixon taxtdan tushirilganini so‘zlang. Musavoy eshitsin, bir yaxshilab hikoya qiling, — deydi bobom o‘rtog‘iga qarab. — Qani bo‘lmasa, tingla, o‘g‘ilcha, — deydi chol va yo‘talib, tarixni boshlaydi. Es-es bilaman, tushdagiday qiziq voqealar, ajoyib sarguzashtlar chol xotirasidan buloqday quyilib ketadi. Farg‘ona janglari, Buxoro g‘azovoti. Qo‘qon va Xorazm talonlari... keyin ruslarning kelishi. Hikoyaga men berilib quloq solaman, jim tinglayman. Chol hammasini birma-bir eslab, uzoq so‘zlaydi. Xotiralar ko‘p. Bular hanuz g‘ira-shira esimda...”²⁷².

Abdulla Qahhor qalamiga mansub “O‘tmishdan ertaklar”²⁷³ qissasi yozuvchining bolalikda ko‘rgan-kechirganlari haqida hikoya qiluvchi avtobiografik asardir. Lekin bu qissa adabiyotimizdagi yaratilgan biografik mazmundagi asarlardan farq qiladi. “Bolalik” qissasida Oybek bola obrazini birinchi o‘ringa qo‘ysa, “O‘tmishdan ertaklar” qissasida bola Abdulla obrazi orqa o‘rinda turadi, u, asosan, “kuzatuvchi”, “guvoh”, “xolis hikoyachi” tarzida ko‘rsatiladi. Muallifning asosiy diqqat-e‘tibori bola guvohligida oilada, oila atrofida yuz bergan voqealarni tasvirlashga qaratilgan. Qissada inson sha‘ni, qadr-qimmatini bilan bog‘liq alamli o‘y-tuyg‘ular, jaholatga qarshi isyon fojiaiy manzaralar hikoya qilinadi. “O‘tmishdan ertaklar” yozuvchi ijodidagi, umuman, XX asr o‘zbek adabiyotidagi fojiaiy, g‘amgin ruhdagi asarlar sirasiga kiradi. Buni qissaga epigraf qilib olingan A.Oripov qalamiga mansub ushbu to‘rtlikdan ham anglash mumkin:

“Eshilib, to‘lg‘onib, ingranadi kuy,
Asrlar g‘amini so‘zlar ”Munojot”.
Kuyi shunday bo‘lsa, g‘amning o‘ziga
Qanday chiday olgan ekan odamzod”.²⁷⁴

Avtobiografik mazmundagi qissalarning yana biri O‘tkir Hoshimov qalamiga mansub, chin ma‘nodagi onalarga bag‘ishlab yaratilgan “Dunyoning ishlari” asaridir. Asarini 2005-yilda nashr etilgan nusxasida asar haqida shunday ta‘riflagan: “Bu qissa katta-kichik novellalardan iborat. Biroq ularning barchasida eng aziz odam— onam siymosi bor. Bunday odamlarning hammasini o‘z ko‘zim bilan ko‘rganman. Faqat ba‘zilarining ismi o‘zgardi, xolos. Bu odamlarning qismati ham qaysidir jihatdan onamga bog‘langan”. Bundan ko‘rinadiki, adib bu

²⁷²Bolalik xotiralarim Muso Toshmuhammad o‘gli Oybek.-Toshkent:Yangi asr avlodi 2019.16-b.

²⁷³<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/abdulla-qahhor-1907-1968/abdulla-qahhor-o-tmishdan-ertaklar-qissa>

²⁷⁴A. Qahhor.Otmishdan ertaklar qissa,G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.1988,188-b.

asarida o‘zi boshidan kechirgan voqealar, o‘zi ko‘rib muloqotda bo‘lgan insonlar hayoti haqida so‘z yuritadi. Yozuvchi o‘zining uslubidan kelib chiqib o‘z qahramonlarining ismlarini o‘zgartirgan holda asariga kiritadi.

G‘afur G‘ulomning “Shum bola” qissasida ham yozuvchining bolalik voqealari, sarguzashtlari, XX asrdagi Toshkent hayotiga oid jarayonlar tasvirlangan. Bir qarashda bu asarda avtobiografik mazmunda yaratilgandek ko‘rinadi. Biroq o‘tkir hajviyaga asoslangan ushbu asarning asosida ijodkor hayotiga bog‘liq faktlar keltirilgan bo‘lsa ham, u avtobiografik emas. Unda haqqoniylikka nisbatan, badiiy to‘qima ustunlik qiladi.

Anvar Obidjonning “Ajnasi bor yo‘llar” qissasida ham voqealar birgina qahramon – muallif obrazi atrofida ro‘y beradi, uning bir necha yillik hayoti nazardan o‘tkaziladi. Shu sababli avtobiografik qissalarni xotira qissa deb atash ham mumkin. Quyida muallifning hayot so‘qmoqlarini kezib yurgan lahzalari ifodalangan o‘rinni keltirib o‘tamiz: “Qandayligi menga tuzukkina ma’lum bo‘lgan manzilda meni noma’lum bir qismat kutmoqda edi. O‘shanda o‘ttiz besh yoshga to‘layotgandim. Toshkentga ketib, yana shuncha yashaymanmi, yo‘qmi, bilmasdim. Unib-o‘ samanmi, tugalay oyoqosti bo‘lamanmi, bunisi ham qorong‘i edi. Tangrisini hanuz xira-yarim tanib yurgan men chalamusulmon banda faqat bir narsani – shu damgacha qay tarzda kun kechirib kelganimni bilardim, xolos. Bolalik – poshsholik, o‘smirlikdan boshlab esa, nuqul baxtimni qidirib yashadim.”²⁷⁵ “Sharq yulduzi” jurnali, 2014 yil 1-2- sonlari “Ajnasi bor yo‘llar” qissasidan parcha.

Jizzaxlik adib Nazir Safarov o‘zining “Ko‘rgan –kechirganlarim”²⁷⁶ nomli avtobiografik qissasi uchun 1968-yilda Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ladi.

“O‘zbek adabiyotida biografik va avtobiografik yo‘nalishda bir qator asarlar yaratilayotgani xarakterli holdir. Alohida bir odam va uning hayot yo‘liga qiziqishning ortgani millat ahlining shaxslashayotgani va ularda alohida odam taqdiri chinakam qiziqish uyg‘onayotganidan belgidir. Shuningdek, biror adabiyotda biografik yo‘nalishdagi bitiklarning ko‘payishi o‘sha yerda odam shaxsiga e’tibor orta boshlaganidan dalolatdir”²⁷⁷, –deb yozadi professor Q.Yo‘ldosh.

O‘tmishdagi voqea-hodisalarni, tarixiy jarayonlarni va tarixiy qahramonlarni aks ettirishda tarixiy qissalar roman janriga yaqinroq turadi. Shuningdek, tarixiy romanga taalluqli bo‘lgan reallik, qahramon taqdirini yoritib berish, aniq faktlar va badiiy to‘qimalarni keltirish, ijtimoiy muhitni, davr koloritini ifodalash, til va uslub masalalari qissada ham o‘z ifodasini topadi. Biroq, yuqoridagi masalalar romanga qaraganda qissa janrida nisbatan torroq aks etadi.

Shunga ko‘ra, tarixiy qissaning bir necha xususiyatlari mavjud. Jumladan, tarixiy qissada o‘tmish voqeligini aks ettirishda badiiylashtirish zarurati mavjud. Shuningdek, adolat tarafdori

²⁷⁵A.Obidjon. Ajnasi bor yo‘llar qissa ,Sharq yulduzi jurnali, 2014 yil 1-2- sonlar

²⁷⁶[https://ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Nazir%20safarov.%20Ko'rgan%20kechirganlarim%20\(qissa\).pdf](https://ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Nazir%20safarov.%20Ko'rgan%20kechirganlarim%20(qissa).pdf)

²⁷⁷Q.Yo‘ldoshev. O‘zlik sari yo‘l. O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil .-Toshkent,2017.10-bet.

bo‘lgan, xalq uchun jonini tikkan, fidoiy shaxslar tarixiy qissalarning yetakchi qahramoni sifatida belgilab kelingan. Biroq tarixiy shaxslarning yetakchi qahramon sifatida tasvirlanishi asarning badiiyatini, ijtimoiy ahamiyatini belgilaydigan birlamchi xususiyat emas.

Tarixiy qissaning yana bir talabi asar o‘sha davr muhitiga muvofiq ravishda arxaiklashtirilgan badiiy tilda yozilishi kerak. Badiiy asar tili o‘quvchiga o‘tmish voqeligini, davr koloritini tasvirlashda muhim vazifa bajaradi. Yozuvchi o‘z tanlagan muhitni yoritishda shu muhitga mos so‘z va iboralarni qo‘llaydi, xalqning o‘sha davrdagi urf-odatlarini, rasm-rusmlarini ham ko‘rsatib beradi. Tarixni muhim manbaalar, hujjatlar asosida to‘laqonli badiiy ifodasini yaratish yozuvchidan katta tajriba va mahorat talab qiladi.

O‘zbek adabiyotida tarixiy mavzudagi qissa janrida salmoqli asarlar yaratgan ijodkorlar ko‘plab uchraydi. Jumladan, Mirkarim Osim ham o‘zining tarixga oid durdona asarlari bilan tarixiy adabiyotimiz xazinasini boyitib kelgan. Ijodkorning “Yangi ariq” nomli tarixga oid dastlabki qissasi Qo‘qon xonligini ideallashtirgan asar sifatida chop etilmay qolib ketgan. “To‘maris”²⁷⁸, “Shiroq”²⁷⁹, “Iskandar va Spitamen”, “Temur Malik”²⁸⁰, “Mahmud Torobiy”, “O‘tror”²⁸¹ kabi qissalarida ajdodlarimizning xorijiy istilochilarga qarshi mustaqillik uchun olib borgan kurashi tasvirlangan.

Mirkarim Osim o‘z asarlarida Amir Temur, Ulug‘bek, Al-Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mashrab singari o‘zbek xalqi ulug‘ siymolarining yorqin obrazlarini yaratib bergan. Uning “Zulmat ichra nur”²⁸² asarida Alisher Navoiyning bolalik hayoti, “Astrobod” qissasida esa Navoiyning hayot yo‘llari bilan birgalikda bu davrlardagi tarixiy voqealar, temuriylar saltanatining parokandalikka yuz burish arafasida turgan davrlaridan lavhalar ham hikoya qilinadi. “Ajdodlar qissasi”, “Jayhun ustida bulutlar”²⁸³ Al- Beruniy hayotini, “Aljabrning tug‘ilishi”²⁸⁴ Xorazmiyni, “Ibn Sino qissasi”²⁸⁵ ibn Sinoni, “Singan setor”²⁸⁶ qissasida esa Mashrabning umr yo‘llarini aks ettiradi. Yuqoridagi tarixiy qissalar o‘zbek tarixiy qissachiligining yuksak namunalariandir.

²⁷⁸<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-to-maris-qissa>

²⁷⁹<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-shiroq-hikoya>

²⁸⁰<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/mirkarim-osim/temurmaliq-afsona-mirkarim-osim/>

²⁸¹<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-o-tror-qissa>

²⁸²<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-zulmat-ichra-nur-qissa>

²⁸³<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-jayhun-ustida-bulutlar-qissa>

²⁸⁴<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-aljabrning-tug-ilishi>

²⁸⁵<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-ibn-sino-qissasi>

²⁸⁶<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/mirkarim-osim-1907-1984/mirkarim-osim-singan-setor-qissa>

Shuningdek, G‘ulom Karimiyning “Karvon” tarixiy -biografik qissasi Mahmud Koshg‘ariy haqida, “Turon qoplari” tarixiy dramatik qissasi xorazmshohlar davrini, “Sohibqiron va alloma” tarixiy dramatik qissasi Sohobqiron hayotiga oid tarixiy mavzudagi asarlar sirasiga kiradi. Asad Dilmurodning “Sherdor”²⁸⁷ tarixiy qissasida ijodkor Samarqandning tarixiy ko‘rinishi, Registon me‘moriy yodgorligi haqidagi tarixiy manzarani jonlantiradi. “Mezon burji”²⁸⁸ qissasida esa Sohobqiron Amir Temurning ota sifatidagi qiyofasi tasvirlangan. Adib ijodida tarix bilan zamon ruhi o‘zaro sintezlashgan, xususan, “Tosh burgut” va “Sirli zina”²⁸⁹ qissalarida shunday holat kuzatiladi.

Zamonaviy adabiy nasrimizning yaqin yillarda yuzaga kelgan yangi janrlaridan biri fantastik qissa janri hisoblanadi. Bu yo‘nalishda, asosan, bolalar adabiyotlari namunalari yaratiladi.

Fantastika o‘zi nima? “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zga shunday ta’rif beriladi: “fantastika”

1.ot. Xayolda, tasavvurda tug‘ilgan, g‘aroyib, g‘ayritabiiy hodisa, obraz va shu kabilar hamda ularning xayoliy tasviri.

Xalq ertaklari fantastikasi.

Adabiyotshunoslikda uni [fantastikani] ikkiga — ilmiy fantastika va badiiy fantastikaga bo‘lib o‘rganiladi. “Fan va turmush”

2.s.t. Shunday obrazlar tasvirlangan badiiy ijod turi, janr (adabiyot, kino, tasviriy san‘at).

Darhaqiqat, har qanday adabiyot rivojida fantastika janri ham muhim rol o‘ynaydi. “Yoshlik”

O‘zbek adabiyotida fantastikaning janr sifatida qaror topa boshlaganiga hali ko‘p vaqt bo‘lgani yo‘q. “Fan va turmush”.²⁹⁰

Fantastik asarlar o‘z ichida ilmiy-fantastik va fantaziyaga ajraladi . Ilmiy-fantastik asarlar tarkibi ham ikkiga ajratiladi: qat’iy ilmiy -fantastika va ijtimoiy fantastika. Fantaziya tarkibini esa dahshatli subjanr (kichik janr - bu asosiy janrdan ajralib turadigan o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan kattaroq janrdagi kategoriya)lar tashkil etadi. Ilmiy fantastikaning asosiy vazifasi —kelajakni bashorat qilib, badiiy ifodalashdan iborat desak, uning asosiy tasvir usuli esa g‘oyaviy eksperiment-tajribadan iborat bo‘ladi deyish mumkin.

O‘zbek adabiyotida fantastik janrlarda ham ijod qilgan adiblar mavjud. Bular orasida H.Shayxov, M.Mahkamov, Tohir Malik, Sa’dullo Quronov, Otabek Quvvatov kabi ijodkorlar qissa janrining fantastik turi bo‘yicha qimmatli asarlar yaratgan. Otabek Quvvatovning

²⁸⁷<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/asad-dilmurod/asad-dilmurod-sherdor-issa/>

²⁸⁸<https://wapik.su/view/asad-dilmurod-mezon-burji-3502>

²⁸⁹<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/asad-dilmurod/asad-dilmurod-sirli-zina-issa/>

²⁹⁰O‘zbek tilining izohli lug‘ati 6jildli,II jild.O‘zbekiston milliy ensklopediyasi Davlat ilmiy nashryoti.2006. 325-b

“Ulug‘bek yulduzlar saltanatida”²⁹¹ bolalar uchun sarguzasht fantastik qissalar sirasiga kiradi. “Somon yo‘li elchilari”, “Vasvasa” asarlari Tohir Malik qalamiga mansub ilmiy-fantastik qissa hisoblanadi. “Somon yo‘li elchilari” qissasi 1978-yil yozilgan. Asar kitob sifatida ilk bor 1979-yil Toshkent shahrida “Yosh gvardiya” nashriyotida chop etilgan. “Somon yo‘li elchilari” muallifning ikkinchi yirik qissasidir. Asar ba’zi o‘rinlarda qahramon ismi bilan “Davron” deb ham ko‘rsatilgan.

Asarda arxeolog Davronning qazishma ishlari davrida boshidan o‘tkazgan kechinmalari haqida hikoya qilinadi. Qazishma ishlari davomida Davronni o‘zga sayyoralik ta’qib qila boshlaydi.

“...Yo‘q, Davron ruhiy kasalikka chalinmagan edi. Uni sharpa ta’qib etmasdi. Uning ko‘ziga Nig ko‘rinayotgan edi. Tabiatda hech narsa izsiz yo‘qolmaydi. Bundan necha asrlar muqaddam Yerga kelib ketgan Nig atmosferaning hali odamzodga noma’lum zarralarida yashab yurardi. Yerni o‘rganish maqsadida sayyoraning bir nuqtasiga qadalib qolgan asboblar hanuz ishlab turardi. Bu o‘zgarish dotsent Begmirzaevda ham sodir bo‘lgandi, ammo bevaqt o‘lim uni kelgusi sinovlardan mahrum qilgandi. Yozyovondagi qazishma ishlarida tanaffussiz ishlayotgan Davron Unetdan kelayotgan to‘lqinlar domiga tobora chirmashar, tabiiyki, buni o‘zi sezmasdi ...”²⁹²

Davron qazishma ishlari olib borayotib oltin haykalchalar topadi. Bu buyumlar yordamida yerliklar o‘zga sayyoraliklar bilan o‘tmishda aloqada bo‘lgani yoki yo‘qligini aniqlashga urinadi. Quyida asarning xotimasidan qissaning mazmunini qisman anglash mumkin:

Xulosa

“Yozyovondan topilgan tilla haykallar siri o‘rganilguncha yillar o‘tdi. Bu orada Yerdagi sezgir asboblar noma’lum sayyoradan uzatilayotgan to‘lqinlarni qabul qildi. Yerdan turib olib borilgan spektral tahlil Somon yo‘lidagi kichik bir sayyora atmosferasida suv bug‘i borligini aniqladi. Oradan yana yillar o‘tgach, yerliklar o‘z vakillarini Somon yo‘li sari uzatdilar.”²⁹³(1978-yil)

Sa’dullo Quronov qalamiga mansub “Galaktikada bir kun”²⁹⁴ ilmiy-fantastik qissa hisoblanadi. Mazkur asar voqealari koinotda kechuvchi o‘tkir syujetlar asosiga qurilgan. Qissa qahramoni 12 yoshli Ahmad yaratgan juda noyob fazo kemasi yerlik olimlar qolib, o‘zga sayyoraliklarning e’tiborini tortadi. Endi u o‘zi bilmagan holda galaktikamizdagi yovuz kuchlar va yaxshilarning kurashiga aralashib qoladi. Kitobning ikkinchi qismida asardagi voqealar davom etadi. Unda Ahmad o‘zga sayyoralik do‘stlari bilan koinotning olis maskanlarida

²⁹¹O.Quvvatov.Ulug‘bek yulduzlar saltanatida.-Toshkent:G‘afur G‘ulom nashriyoti, 2021.

²⁹²T.Malik, Somon yo‘li elchilari fantastik qissa, Yosh gvardiya nashriyoti.Toshkent-1979.91-92-b.

²⁹³T.Malik, Somon yo‘li elchilari fantastik qissa, Yosh gvardiya nashriyoti.Toshkent-1979.125-b.

²⁹⁴<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/230-galaktika>

boshdan kechirgan sarguzashtlar aks etgan. Asar syujeti fizika va astrofizikaning nisbiylik nazariyasi, kvant mexanikasi, kvant chigalligi, umumiy maydon nazariyasi, torlar nazariyasi, atom fizikasi, gravitatsiya kabi ilmiy muammolari va gipotezalari asosiga qurilgan.

“Ko‘kkezar” Salmir sayyorasiga yaqinlashib qolganida Margol bir narsani eslab qoldi. U Ahmadga yuzlanib so‘zlay boshladi:

–Ahmad, sen galaktikadagi safarimiz davomida shunchalar ko‘p o‘zga sayyoraliklarni, “dahshatli” maxluqlarni ko‘rdingki, endi ulardan qo‘rqishingga ishonmay qoldim.

–To‘g‘ri aytasiz, hecham qo‘rqmayman. Lekin buni nega aytyapsiz? –ajablanib so‘radi Ahmad. Bu gapdan so‘ng Ahmad rosa qotib kuldi. Chunki u haligacha o‘zga sayyoralik eng yaqin do‘stining haqiqiy yuzini ko‘rganicha yo‘q edi-da.

–Meni tushunmading chog‘i? Qara, men hali ham yerliklar qiyofasidaman-ku!

Shundan so‘ng Margol boshining orqa tomoniga ikki qo‘lini cho‘zib, sekin-asta niqobini yecha boshladi. Avvaliga uning katta kal boshi, keng peshonasi, keyin piyolaning og‘zidek keladigan tim qora ko‘zlari, jajji burni va og‘zi ko‘rindi. Margol Ahmad tasavvur qilganiday semiz emas, balki baliq qiltanog‘idek ingichka edi. Unga bir muddat o‘ychan qarab qolgan Ahmad, kutilmaganda, yana qah-qah otib kulib yubordi”.²⁹⁵

Adabiyotshunosligimizda qissachilik yo‘nalishida ijod qilib, badiiy durdonalarimiz safini salmoqli darajada kengaytirgan adiblarimiz talaygina. Ulardan ayrimlari haqida quyida keltirib o‘tamiz. Xudoyberdi To‘xtaboyevning “Feletondan keyin”²⁹⁶(1963), “Sehrli qalpoqcha”(1964), “Muhabbat qo‘shig‘i”(1967),²⁹⁷ “Jonginam, shartingni ayt”(1969), “Konizar yulduzlari”(1978), “Omonboy va Davronboy sarguzashti”(1974)²⁹⁸ qissalari, Tohir Malikning “Charxpalak”, “Alvido, bolalik”, “Zaharli g‘ubor”²⁹⁹, “So‘nggi o‘q”³⁰⁰, “O‘v”³⁰¹, “Falak”³⁰², “Bir ko‘cha, bir kecha”, “Chorraxada qolgan odamlar”³⁰³, “Somon yo‘li elchilari”, “Murdalar gapirmaydilar”³⁰⁴,

²⁹⁵O. Quvvatov, Gallaktikada bir kun ilmiy-fantastik qissa, library.dtpi.uz ,2019.86-b.

²⁹⁶<https://www.facebook.com/Yakkasaroyakm/posts/xudoyberdi-toxtaboyevfelyetondan-keyin-hikoyalar-telegram-manzilimiz-orqali-yukl/128898675462448/>

²⁹⁷<https://library-samdukf.uz/wp-content/uploads/2023/04/Muhabbat-qoshigi-2.pdf>

²⁹⁸https://zakm.uz/media/books/X._Toxtaboyev_Omonboy_bilan_Davronboy.pdf

²⁹⁹ <https://kutubxona.samduuf.uz/book?id=4378>

³⁰⁰<https://library-samdukf.uz/product/tohir-malik-songgi-oq-qissa/>

³⁰¹<http://42maktabdehq.zn.uz/files/2017/01/Ov-qissa.-Tohir-Malik.pdf>

³⁰²http://217.30.173.42/jirbis2/components/com_irbis/images/covers/-3/6286/falak__1.pdf

³⁰³<https://kutubxona.samduuf.uz/book?id=4779>

³⁰⁴<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=724:tohir-malik-murdalar-gapirmaydilar-qissa>

“Qaldirg‘och”³⁰⁵ kabi, O‘lmas Umarbekovning “Sevgim – sevgilim”³⁰⁶, “Kimning tashvishi yo‘q”³⁰⁷, “Urush farzandi”³⁰⁸, “Yoz yomg‘iri”³⁰⁹, “Damir Usmonovning ikki bahori”, “Cho‘li Iroq”³¹⁰, “Oq qaldirg‘och” kabi, Primqul Qodirovning “Qadrim”³¹¹, “Erk”³¹², “Meros”³¹³, “Najot”, “Yayra institutga kirmoqchi”, “Akromning sarguzashtlari”³¹⁴ kabi, O‘tkir Hoshimovning “Cho‘l havosi”³¹⁵, “Bahor qaytmaydi”³¹⁶, “Qalbingga quloq sol”³¹⁷, “Ikki karra ikki-besh”³¹⁸, “Shamol esaveradi”³¹⁹, “Odamlar nima derkin?”³²⁰ kabi, Erkin A‘zamning “Shoirning to‘yi”³²¹, “Pakana oshiq ko‘ngli”³²², “Guli-guli”³²³, “Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati”³²⁴ qissalari, “Jannat o‘zi qaydadir”³²⁵ dramatik qissasi, “Suv yoqalab”, “Zabarjad”

³⁰⁵https://uniwork.buxdu.uz/resurs/12600_2_FEEFFC8873F9F3542BC319496671D879482125C2.pdf

³⁰⁶<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=595:o-lmas-umarbekov-sevgim-sevgilim-qissa>

³⁰⁷<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=591:o-lmas-umarbekov-kimning-tashvishi-yo-q-qissa>

³⁰⁸<https://mutolaa.com/book/urush-farzandi>

³⁰⁹<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=597:o-lmas-umarbekov-yoz-yomg-iri-qissa>

³¹⁰<https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/uzbek-nasri/o-lmas-umarbekov-1934-1994/o-lmas-umarbekov-muhabbat-qo-shig-i-hikoya>

³¹¹[https://ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Pirimqul%20Qodirov.%20Qadrim%20\(qissa,%20hikoyalar\).pdf](https://ziyouz.com/books/uzbek_nasri/Pirimqul%20Qodirov.%20Qadrim%20(qissa,%20hikoyalar).pdf)

³¹²<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/41-o-zbek-nasri?download=638:pirimqul-qodirov-erk-qissa>

³¹³<https://www.scribd.com/document/703735852/Pirimqul-Qodirov-Meros-Kitoblar-pdf>

³¹⁴<https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/17-bolalar-kutubxonasi>

³¹⁵https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf

³¹⁶<https://mykitob.uz/badiiy-kitoblar/otkir-hoshimov-bahor-qaytmaydi/>

³¹⁷<https://www.youtube.com/watch?v=QPC3byMSkog>

³¹⁸<https://mutolaa.com/uz/book/ikki-karra-ikki-besh>

³¹⁹https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf

³²⁰https://zakm.uz/media/books/O._Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf

³²¹<https://youtu.be/K8BVFY2ApVQ?si=M8rjozAsdmVWeTId>

³²²<https://kh-davron.uz/yangiliklar/muborak-kin/erkin-azam-pakananing-oshiq-kongli.html>

³²³<https://ziyouz.uz/ozbek-nasri/erkin-azam/erkin-azam-guli-guli-issa/>

³²⁴<https://staff.tiame.uz/storage/users/452/books/8rIVBoeaKEogs9wPBy3YjIvDyqyuE73og0gMSE68.pdf>

³²⁵<https://mutolaa.com/uz/book/jannat-o-zi-qaydadir>

kinoqissa, Xayriddin Sultonovning “Yozning yolg‘iz yodgori”³²⁶, “Ko‘ngil ozodadur”³²⁷, “Saodat sohili”³²⁸, “Ajoyib kunlarning birida” kabi qissalar yaratilgan va yaratilib kelinmoqda.

Xulosa qilib aytganda, qissa o‘zbek adabiyotida keng tarqalgan janrlardan biri bo‘lib, bu yo‘nalishda tarixning uzoq davrlaridan to hozirgi zamongacha yozuvchi-adiblarimiz tomonidan barakali ijod qilib kelingan. Qissa epik turning o‘ziga xos janri sifatida insonning ruhiy olamini chuqur ifoda etish va jamiyat asliyatini badiyat orqali aks ettirish uchun qulay adabiy janrlardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sultonov I. Adabiyot nazariyasi.-Toshkent:O‘qituvchi,2005.
2. Quronov D.Adabiyot nazariyasi asoslari.–Toshkent:Navoiy universiteti-2018.
3. Jamilova B.Bolalar qissalarida avtobiografizm va badiiy konsepsiya. O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari mavzusida xaqaro ilmiy-nazariy oflayn-onlayn anjuman.
4. Dilmurodov A.Mulk qissasi.-Toshkent:Yosh gvardiya nashryoti,1989.
5. Dilmurodov A.Sherdor tarixiy qissa.Toshkent:Yosh gvardiya nashryoti,1986.
6. Axmedova H.Istiqlol davri o‘zbek qissachiligida ayol ruhiyatining badiiy talqini. Journal of innovations in scientific and educational research volume-6 issue-12(30-december).
7. Abdurahmonova F.O‘zbek adabiyotida qissa janri taraqqiyoti talqini.New Renaissance.2023.11.01.3030-3753.
8. Anvar O.Ajnasi bor yo‘llar qissa.-Toshkent:Sharq yulduzi jurnali,2014 yil 1-2-sonlari.
9. O‘zbek tilining izohli lug‘ati.O‘zbekiston milliy ensklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti (2006) II-IV jildlari.
10. Malik T.Somon yo‘li elchilari.-Toshkent:Yosh gvardiya nashriyoti-1979.
11. https://namdu.uz/media/Books/pdf/2024/08/02/NamDU-ARM-12616-Galatikada_bir_kun.pdf
12. Umurov H.Adabiyotshunoslik nazariyasi.-Toshkent:A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti,2004.
13. Oybek.Bolalik xotiralarim.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2019.
14. Nazarova Sh.Yangi qissachilik sarhadlari(2012yil qissalari tahlili)Sharq yulduzi jurnali.2013 yil, 3-son.
15. Hasanov Sh.Erkin A‘zamning “Parizod”i, zarnews.uz 20.12.2020,12-son
16. 11-sinf adabiyoti 2-qism.-Toshkent:O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti,2018.
17. Yo‘ldoshev Q.O‘zlik sari yo‘l.O‘zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon tavalludiga 70 yil.-Toshkent,2017.10-bet.
18. Belinskiy.Tanlangn asarlar.Poeziyaning xil va turlarga bo‘linishi maqolasi.Toshkent:O‘z.SSSR Davlat nashriyoti-1955.179-b.

³²⁶<https://mutolaa.com/ru/book/yoazning-yolg-iz-yodgori>

³²⁷<https://www.scribd.com/document/787475882/Xayriddin-Sultonov-Ko-ngil-ozodadur-qissa>

³²⁸https://zakm.uz/media/books/O_Hoshimov_Shamol_esaveradi.pdf